Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320646

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Emotional intelligence is the ability to recognize and manage one's own feelings, intentions, motives, and desires for others and for others. 1995 - The concept of emotional intelligence became popular with the publication of psychologist Daniel Goleman's book Emotional Intelligence. This book has been "New" for a year and a half.It has remained on the York Times list of best-selling books.

According to Goleman,

Emotional intelligence is the best indicator of success at work. ANFIS (Adaptive-Network-Based Fuzzy Inference System) identifies emotions from a set of measurable physiological changes in the human body.According to the results, in the era of advanced technology, producers with improved overall emotional intelligence in work and social environments become successful individuals. Thus, artificial intelligence can identify excess costs in business processes and suggest optimal use of resources to improve productivity. AI includes intelligent agents and intelligent systems that enable organizations to perform intelligent and cognitive actions that integrate business processes with tasks, enabling enterprises to be innovative. Intelligent agents are seen as the foundation for building strong artificial intelligence, so an intelligent system is based on the characteristics of human cognition and learning. Thus, businesses are using artificial intelligence systems to find new solutions to recurring problems in their business processes, competition and technological advances.

CONCLUSION

Thus, artificial intelligence (AI) is systems that imitate human intelligence to improve jobs, increase productivity and drive economic growth. The intellectuals that have emerged from artificial intelligence have many of the know-how needed to improve efficiency and create new knowledge for business processes. Artificial intelligence is where intelligent systems enable employees to access valuable information through technology platforms.

REFERENCES

1. The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PQ-4996 from 17.02.2021 "ABOUT MEASURES FOR CREATION OF CONDITIONS FOR OPERATIVE INTRODUCTION OF TECHNOLOGIES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE".
2. The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan from 05.10.2020 № PQ-5234 about approval of strategy "DIGITAL UZBEKISTAN - 2030" and measures on its effective implementation.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan of 26.08.2021 "ON MEASURES TO INTRODUCE A SPECIAL REGIME FOR THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES".
4. Horst Hanusch and Andreas Paika Manifesto of comprehensive neo-Schumpeterian economy. Volkswirtschaftliches Diskussionsreihe, No. 289 Provided in cooperation with: Augsburg University, Institute of Economics.
5. http://www.sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/4897
6. https://www.in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/6926

BUDJET TASHKILOTLARIDA SMETA TUZISH VA TASDIQLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshqobilova Nigora Shafoatovna
Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti

Published: 23.12.2024

Cite this article: Eshqobilova Nigora Shafoatovna (2024). Budjet tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320646

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

gavhar9369@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda budjet tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish masalasini o‘rganadi. Unda smeta tuzish jarayonining ayniqsa davlat byudjeti bilan bog‘liq tashkilotlarda qanday amalga oshirilishi, uning qiyinchiliklari va samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan islohotlar tahlil qilinadi. Tezis smeta tuzishning an’anaviy usullari, shuningdek, smeta tasdiqlash jarayonidagi byurokratik to‘siqlar va tartib-taomillarni takomillashtirish zarurligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, smeta jarayonining shaffofligi va hisobdorlikni oshirish orqali budjet mablag‘larining samarali ishlatilishini ta’minlash mumkinligi haqida fikrlar bildiriladi. Ushbu tezis davlat byudjeti tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash jarayonlarini takomillashtirishni istagan mutaxassislar, davlat xizmatchilari, iqtisodchilar va moliya bo‘yicha tadqiqotchilar uchun foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Budjet, budjet tizimi, davlat budjeti, budjet tashkiloti, smeta, moliya, iqtisodiyot, tashkilot, g‘aznachilik, moliyaviy hisobot, moliya yili, xarajatlar, xarajatlar smetasi, xarajatlar moddasi, daromadlar va xarajatlar smetasi.


Budjet tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibi moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Smetalar tashkilotning qisqa va uzoq muddatli maqsadlariga muvofiq ravishda xarajatlarni aniqlashtiradi va ularning moliyaviy ta'minotini rejalashtiradi. Bu jarayon bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi: dastlabki reja va ehtiyojlarni aniqlash, ularni aniq raqamlar bilan ifodalash, tasdiqlash uchun tegishli organlarga taqdim etish va yakuniy tasdiqlash.

Tasdiqlash bosqichi tashkilotning moliyaviy intizomi va davlat mablag‘larining samaradorligini ta'minlash uchun muhimdir. Odatda, smetalar yuqori turuvchi tashkilotlar yoki davlat moliya organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Tasdiqlashdan keyin smeta davlat byudjeti doirasida moliyalashtiriladi. Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish, bu jarayonni tezlashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Smeta tuzishda dastlab tashkilot ehtiyojlari, maqsad va vazifalari aniqlanadi. Keyinchalik xarajatlarning har bir bandi batafsil ishlab chiqilib, moliyaviy ta'minotga moslashtiriladi. Smetalar tasdiqlash uchun tegishli idoralarga taqdim etilib, ular o‘z navbatida byudjet siyosati va moliyaviy resurslar doirasida ko‘rib chiqiladi.

Tasdiqlangan smeta asosida tashkilot faoliyatini moliyalashtirish amalga oshiriladi. Shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun smeta tuzish va tasdiqlash jarayonida ochiq ma’lumotlar tizimi va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Shu tariqa, bu jarayon davlat mablag‘larining oqilona va samarali ishlatilishini kafolatlaydi.

Budjet tashkilotlari faoliyati va turiga qarab xarajatlar smetasining bir necha xil turlarga bo‘linadi (1-rasm):




1-rasm. Xarajatlar smetasining turlari[58]

Yuqoridagi rasmdan shuni ko‘rishimiz mumkinki, budjet tashkilotlari faoliyati va turiga qarab xarajatlar smetasi 3 turga bo‘lingan. Birinchi va ikkinchi turlari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmasada tegishli. Uchinchi turga esa budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta tuzishda ishtirok etadigan tashkilotlar kirgan. Odatda tashkilotlar belgilangan shaklda budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yiclia smetani har yili tuzadilar va tasdiqlaydilar. Bunda, tashkilotlar budjetdan tashqari mablag‘lar tushumlarini va xarajatlarini rejalashtirishni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag 'lari qonunchilikda nazarda tutilgan budjetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag‘lar hisoblanadi. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lari tashkil bo‘lish manblag‘lari quyidagi rasmda ifodalangan (2-rasm):

[58] Sholdarov D.A. “Byudjet nazorati va g’aznachiligi. O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2022. 158 b.



2-rasm. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lari tashkil bo‘lish manblag‘lari[59]

Yuqoridagi rasmda keltirilgan budjetdan tashqari m ablagiar bo‘yicha alohida-alohida daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi.

Budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetada budjetdan tashqari mablag‘lar tushumlarining hajmi va ushbu mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalaming daromad qismiga budjetdan tashqari m ablagiam ing qonunchilikka muvofiq barcha shakllanish manbaalari bo‘yicha kutilayotgan mablag‘lar tushumi va moliya yilining boshiga mablag‘lar qoldig‘i kiritiladi.

Smetani tuzishdan avval budjet tashkiloti oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar aniq belgilab olinadi. Shundan so‘ng, kelgusi moliyaviy yil uchun kutilayotgan xarajatlar va daromadlar tahlil qilinadi. Bu jarayonda tashkilot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari, mablag‘larning asosiy qismi qaysi sohalarga yo‘naltirilishi kerakligi va ularning iqtisodiy samaradorligi hisobga olinadi. Dastlabki reja tayyorlangach, smeta loyihasi tegishli tartibda ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Tasdiqlangan smeta tashkilot uchun moliyaviy yo‘riqnoma sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

16. Nurmuxmedova B.I. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IqtisodMoliya”. 2018. - 576 b.

17. A.Tuychiev, A.Ostanaqulov, K.Ibragimov (2019). Budjet tashkilotlarida budjet hisobi. Iqtisod moliya. T:. 2019

18. Ostanaqaulov M. Budjet hisobi. Darslik. – T.: «Talqin» 2008. 424 b.

19. Sholdarov D.A. “Byudjet nazorati va g‘aznachiligi. O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2022. 158 b.

20. Туйчиев А.Ж. и дрг. Бюджетный учет. Учебной пособия. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2018. – 278 b.

21. Toshmuxamedova D.A. G`aznachilik. O`quv qo`llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2018. – 328 b.

[59] Туйчиев А.Ж. и дрг. Бюджетный учет. Учебной пособия. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2018. – 278 b.

22. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet hisobi: Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. 316 b.
23. T.Malikov, N.Haydarov. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. 2007
24. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009.

DAVLATNING BUDJET TUZILISHI VA UNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Qahramanova Marjona Akmal qizi
Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti
narzilmirvoshi@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola davlatning budjet tuzilishi va uni shakllantirish xususiyatlarini o‘rganadi. Unda davlat byudjeti tuzilishining asosiy tarkibiy qismlari, ya'ni daromadlar va xarajatlar qismi, hamda ularni shakllantirishda davlatning moliya siyosatiga ko‘rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, davlat byudjeti shakllantirilishining mamlakatning iqtisodiy holati, ijtimoiy ehtiyojlar va xalqaro moliyaviy majburiyatlarga mos ravishda qanday o‘zgarib borishi kerakligi haqida fikr yuritiladi. Budjet tuzilishining samarali bo‘lishi uchun davlatning iqtisodiy holatini to‘g‘ri baholash, daromadlar va xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Budjet, budjet mablag‘lari, davlat moliyasi, nazorat, resurslarni taqsimlash, moliyaviy monitoring, davlat sektori, davlat byudjeti, boshqaruv mexanizmi, moliya resurslar, budjet siyosati, moliyaviy boshqaruv, budjet tizimi.

Davlatning budjet tuzilishi va uni shakllantirish xususiyatlari mamlakatning moliyaviy tizimini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Budjet, davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishda, ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun budjet tuzilishi aniq va samarali bo‘lishi kerak, bu esa davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Davlatning budjet tuzilishi turli darajadagi budjetlarning turlarini, har bir budjet bo‘g‘inining tayinlanishini, turli pog‘onadagi budjetlar o‘rtasida daromad va xarajatlarning taqsimlanishini, ularning amal qilish tamoyillarini, markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining budjet tizimini boshqarishdagi vakolatlarini belgilab beruvchi yuridik me’yorlarga asoslanadi. Budjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadaga budjetlar yig‘indisini bildiradi. Demak, Budjet tuzilishi mamlakatning davlat budjeti va budjet tizimini, uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, budjet tasnifini, budjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi budjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, budjetlar tarkibi va tuzilmasini, budjet mablag‘larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi (1-rasm).